O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Қашқадарё вилояти

180100, Qarshi Shahri, I.Karimov shox ko'chasi 60a-uy. Tel/Faks (375) 221-06-65, 221-10-90 E-mail: kashdavekspertiza@mail.ru. www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Eshbabayev Maxmud Mustafayevich
Sana:20-06-2022 yil

# Yig'ma ekspert xulosasi № 47558

**Obyekt nomi** «Qarshi tumani Beshkent shahrida joylashgan "Beshkent markaziy o'yingohi" bino va inshoatlarini ta'mirlash ishlari (1-bosqich)»

**Buyurtmachi** - "OBODONLASHTIRISH BULIMI"
**Bosh loyihachi** - Qashqadaryo gaz sanoat fuqaro loyiha» MCHJ
**Litsenziya** AL 001584
**Moliyalashtirish manbai** - Maxalliy budjeti
**Bosh pudratchi** – Tender savdolari orqali aniqlanadi
**Qurilish turi** Qayta qurish (rekonstruksiya)
**Murojaat raqami:** № 43538

## 1. Loyihalash uchun asos

1.1. Qarshi tumani Hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi 15- iyundagi 10- sonli xati.

## 2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha-smeta hujjatlari quyidagilardan iborat:

- Umumiy tushuntirish xati - Kitob
- «Mamuriy va maishiy binosi(qismlar AS) - Albom 1.
- Ob'ektning joriy narxlarda hisoblangan qiymati, mahalliy resurslar varaqasi, materiallar sarfi - kitob

## 3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Qurilishning iqlim zonasi – IY,tashqi havo harorati +36 0S, - 17 0S

Normativ qor qatlami vazni - 50 kgs/m2.

Normativ shamol bosimi - 38 kgs/m2

Mintaqaning seysmikligi - 7 ball.

Qurilish maydoni: Qashqadaryo viloyat, Qarshi tumani.

***Asosiy loyiha yechimlari***

### 3.1. Arxitektura va rejalashtirish yechimlari.

"Mamuriy va maishiy binosi" mavjud ikki qavatli to'g'ri burchakli shaklda, o'lchami o'qlar bo'yicha

18,7x21,13 metr. Birinchi qavatda quyidagi xonalar joylashgan: o'tish joyi, tibbiyot punkti, kiyim almashtirish xonasi, hakamlar xonasi, komissar xonasi, hojatxona yubinish xonasi, yuvinish xonasi, jixozlar uchun xona. Ikkinchi qavatda quyidagi xonalar joylashgan: qo'riqlash xizmati xonasi, ayvon, yo'lak, tomasha zali, dam olish xonasi, qo'l yo'vish xonasi, xona (3ta), konferensiya zali, hojatxona (2 dona). Bino yo'lak bo'ylab ikki tomonlama xonalar joylashtirilib loyihalashtirilgan. Ikkinchi qavatga ichki zinadan chiqiladi. Asosiy kirish joyi nogironlar uchun pandus bilan jihozlangan. Ichki pardoz: devor va pardevorlar sifatli suvoq qilinib, suv tarkibli bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Pollar- laminat va keramik plitka. Tashqi pardoz: fasad devorlari suvoq qilinib, Travertin dekorativ qoplama bilan pardozlanadi. sokol - «keramik» tipli plitka bilan qoplanadi.

**3.2. Konstruktiv qarorlar.**

"Mamuriy va maishiy binosi" mavjud ikki qavatli loyihalashtirilgan. Bino o'lchami o'qlar bo'yicha 18,7x21,13m. Bino balandligi -3,7m.

- devorlarni teshish va temir ugolok bilan mustaxkamlash.
- devorlarni ikki tomonlama setka va torkret shvok bilan mustaxkamlash.
- tusiqlarni buzish, o'rnatish armaturali g'isht qalinligi t=120mm va 2-kovatga penoblok o'rnatish.
- quyma temir betonli rama va lestnitsa sinfi V20,V15 o'rnatish.
- pollarni almashtirish seriyasi 2.244.1 i/ch.6.
- vitraj, deraza, eshik va darvozani almashtirish alyumin profil, MDF va temirdan yasalgan.
- binosining tomini profillangan tunika va temirdan progon va ferma o'rnatish.
- issiqlik saqlovchi qalinligi 50mm min. plita, armaturali setka va gipsokartonli potolok o'rnatish.
- quyma betonli krilso o'rnatish.
- tashki va ichki pardozlash ishlari.

**3.3. Bosh reja (Genplan).** Loyihalashtirish uchun ajratilgan yer maydoni Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani Beshkent shahrida hududida joylashgan. Loyiha bo'yicha mavjud "Beshkent markaziy o'yingohi" binosi qurilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari hududda: mini futbol maydoni, ochiq suv hovuzi, 10 $m^3$ li ichimlik suv hovuzi, 10 m3 li oqova suv o'rasi (выгреб), yong'in xavfsizlik burchagi va chiqindi yig'ish maydonchasi qurilishi ko'zda tutilgan. Vertikal rejalashtirish yondosh hududlar bilan bog'liq holda bajariladi. Yo'l va yo'laklarning qattiq qoplamalari armosetka o'rnatilib, qalinligi 10sm beton bilan bajariladi. Binoning old tomoni asosiy kirish joyi metall darvoza va qolgan tomonlari panjara tusiq bilan o'raladi. Hudud obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi.

**Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.**

Qurilish hajmi - 3946,3 m3

Umumiy maydoni - 744,2 m2

Qurilish maydoni - 469,8 m2

Quvvati - bino.

Ob'ektning QQS bilan, buyurtmachi xarajatlarisiz

joriy narxlardagi smeta qiymati - 975 570,272 ming so'm.

Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: - 12 698,053 kishi/soat.

**4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:**

**5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.**

5.1. Loyiha tegishli tashkilotlar bilan kelishilsin.

## 6. Ekspertiza natijalari.

6.1. **Arxitektura-qurilish yechimi bo'yicha.** Muhim e'tirozlar yo'q, loyiha ish jarayonida mavjud normativ hujjatlar asosida to'g'rilandi.

6.2 Smeta qismi bo'yicha:

Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta hujjatlarini ko'rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi: ish haqi, mashina va mexanizmlarning ishlashi, asosiy qurilish materiallari ShNK 4.02.00-05 normalariga muvofiq. "Uslubiy tavsiyalar" va ShNK 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan ob'ekt narxi amaldagi narxlarda aniqlash hisob kitobi asosida ko'rib chiqildi.

Quruvchi-ishchilarning o'rtacha soatlik ish haqi ijtimoiy sug'urtani hisobga olgan holda 17378,03 so'mni tashkil etadi, sug'urta 12%, pudratchining boshqa xarajatlari 19,54% ni tashkil etadi.

Qurilish materiallari va konstruksiyalarining narxlari "O'zbekiston Respublikasining qurilish sanoatida foydalanadigan moddiy-texnika resurslari uchun 2021 yil 4-chorakdagi amaldagi narxlar katalogi" bo'yicha mintaqadagi o'rtacha me'yorlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Buyurtmachi tomonidan amaldagi narxlarda taqdim qilingan ob'ekt qurilishining qiymati **975 570,273** ming so'm miqdorida, shu miqdordagi smeta qiymati tasdiqlash uchun belgilandi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

## 7. Xulosalar.

7.1. **"Qarshi tumani beshkent shahrida joylashgan "Beshkent markaziy o'yingohi" bino va inshoatlarini ta'mirlash ishlari (1-bosqich)"** ob'ektining loyiha-smeta hujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqilib, quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlar bilan tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar.**

| | |
|---|---|
| Qurilish hajmi | - 3946,3 m3 |
| Umumiy maydoni | - 744,2 m2 |
| Qurilish maydoni | - 469,8 m2 |
| Quvvati | - bino. |

Ob'ektning QQS bilan, buyurtmachi xarajatlarisiz

| | |
|---|---|
| joriy narxlardagi smeta qiymati | - 975 570,273 ming so'm. |
| Qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari: | - 12 698,053 kishi/soat. |
| Qurilish muddati | - 6 oy. |

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq 4-ilova, II bob 8-band va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 iyundagi 261-sonli qarori bilan

tasdiqlangan "Ob'ektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom" va Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 26 apreldagi 243-sonli qaroriga ko'ra, ob'ektning tavsiya qilinayotgan boshlang'ich qiymati tanlov savdolarini o'tkazish uchun mo'ljallangan va shartnoma tuzish uchun asos bo'lmaydi.

**Bosh mutaxassis:** Jarkix Natalya Petrovna

**Ishtirokchi ekspertlar:**

Radjabov Umidjon Murodullayevich

Харид қилиш ҳужжатларига
№1 ИЛОВА

## ҚАРШИ ТУМАНИ ОБОДОНЛАШТИРИШ БОШҚАРМАСИ

ЭНГ ЯХШИ ТАКЛИФЛАРНИ ТАНЛАШ ЎТКАЗИЛИШИ ТЎҒРИСИДАГИ

# Э Ъ Л О Н И

| | |
|---|---|
| Танлаш ўтказиш шакли: | Танлаш ўтказиш тўғрисидаги эълонда (1-иловага мувофиқ) кўрсатилган муддатда танлаш иштирокчиларини таклифларини қабул қилиш орқали электрон тарзда ўтказилади. |
| Давлат буюртмачиси: | Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси (бундан буён матнда буюртмачи деб юритилади). |
| Харид предмети: | Қарши тумани Бешкент шахри худудидаги "Бешкент марказий ўйингохи" ни мукаммал таъмирлаш ишлари. |
| Харид предметининг бошланғич нархи ва етказиб бериш (иш, хизматни туғаллаш) шарти: | **975 570 273 (тўққиз юз етмиш беш миллион беш юз етмиш минг икки юз етмиш уч) сўм. Шундан ҚҚС: 127248296 (бир юз йигирма етти миллион икки юз қирқ саккиз минг икки юз тўқсон олти) сўм. Ишларни бажариш муддати шартнома имзолангандан сўнг 90 кунгача** |
| Молиялаштириш манбаи ва валютаси: | Жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган "Очиқ бюджет" жамғармаси маблағлари. Ўзбекистон Республикаси миллий валютаси сўмда. |
| Тўлов шартлари: | Шартнома кучга кирганидан сўнг 30 фоиз миқдорида олдиндан тўлов амалга оширилади ва таъмирлаш ишлари бажарилгандан сўнг, қолган 70 фоизи тўлаб берилади. |
| Танлаш ўтказиладиган жойнинг манзили: | Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси |
| Буюртмачи билан алоқа боғловчи мансабдор шахс: | Исломов Илхом. Тел: 916341508. Қарши тумани, Ўзбекистон мустақиллиги МФЙ, Нурабод кўча №41/2 уй |
| Иштирокчилар томонидан таклифлар бериш муддати тугайдиган сана ва вақт: | Таклифлар давлат харидларининг электрон тизимида танлаш ўтказиш тўғрисидаги эълон килинганидан сўнг, камида беш иш куни давомида, соат 9-00 дан 18-00 га қадар танлаш ўтказиладиган жойнинг манзили бўйича қабул қилинади. |
| Иштирокчиларга нисбатан қўшимча талаблар: | Харид комиссияси томонидан ўтказиладиган дастлабки малака танловидан ўтган иштирокчиларнинг таклифлари кўриб чиқилади ва баҳоланади; таклифларни таъминлаш учун иштирокчининг товар хом ашё биржасидаги махсус ҳисоб рақамида закалат тарзида харид қилиш ҳужжатларига мувофик харид предмети бошланғич нархи жами суммасининг 3% миқдоридаги маблағи бўлиши шарт |

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи** — **Д. Даминов**

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси хисобчиси** — **А. Хўжақулов**

O'ZBEKISTON RESP. QASHQADARYO VIL. QARSHI TUMAN HOKIMLIGI "OBODONLASHTIRISH" BOSHQARMASI

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси

бошлиғи ______________ Д. Даминов

М.Ў

# Т Е Х Н И К  Т О П Ш И Р И Қ

Қарши тумани Бешкент шахри худудидаги "Бешкент марказий ўйингохи" ни мукаммал таъмирлаш ишлари

| ТЕХНИК ТОПШИРИҚ МАЗМУНИ | ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ |
|---|---|
| Танлаш ўтказиш шакли: | Танлаш ўтказиш тўғрисидаги эълонда (1-иловага мувофик) кўрсатилган муддатда танлаш иштирокчиларини таклифларини қабул қилиш орқали электрон тарзда ўтказилади. |
| Давлат буюртмачиси: | Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси (бундан буён матнда буюртмачи деб юритилади). |
| Харид предмети: | Қарши тумани Бешкент шахри худудидаги "Бешкент марказий ўйингохи" ни мукаммал таъмирлаш ишлари. |
| Харид предметининг бошланғич нархи ва етказиб бериш (иш, хизматни туғаллаш) шарти: | **975 570 273 (тўққиз юз етмиш беш миллион беш юз етмиш минг икки юз етмиш уч) сўм. Шундан ҚҚС: 127248296 (бир юз йигирма етти миллион икки юз қирқ саккиз минг икки юз тўқсон олти) сўм. Ишларни бажариш муддати шартнома имзолангандан сўнг 90 кунгача** |
| Молиялаштириш манбаи ва валютаси: | Жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган "Очиқ бюджет" жамғармаси маблағлари. Ўзбекистон Республикасининг миллий валютасида. |
| Тўлов шартлари: | Шартнома кучга кирганидан сўнг 30 фоиз миқдорида олдиндан тўлов амалга оширилади ва таъмирлаш ишлари бажарилгандан сўнг, қолган 70 фоизи тўлаб берилади. |
| Танлаш ўтказиладиган жойнинг манзили: | Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси |
| Буюртмачи билан алоқа боғловчи мансабдор шахс: | Исломов Илхом. Тел: 916341508. Қарши тумани, Ўзбекистон мустақиллиги МФЙ, Нурабод кўча №41/2 уй |
| Иштирокчилар томонидан таклифлар бериш муддати тугайдиган сана ва вақт: | Таклифлар давлат харидларининг электрон тизимида танлаш ўтказиш тўғрисидаги эълон килинганидан сўнг, камида беш иш куни давомида, соат 9-00 дан 18-00 га қадар танлаш ўтказиладиган жойнинг манзили бўйича қабул қилинади. |
| Танловда иштирок этиш шарти | Танловда иштирок этадиган талабгорлар куйидаги хужжатларни тақдим этишлари шарт. -Танлов иштирокчиси тўғрисидаги умумий ахборот (Устав ва Гувохномадан, Таъсисчилар ва раҳбарнинг Паспорт нусхалари); -Танлов иштирокчиси томонидан, танловда иштирок этишини таъминлайдиган малака хужжатлари; Танлаш таклифининг қайтариб олинмаслигини таъминлайдиган закалат ёки банк кафолатининг мавжудлиги; -Танлов иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланиладиган махсус техникалари ва машина механизмлари тўғрисидаги маълумотлар; - Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибасига оид хужжатлар. Шунингдек жорий танлаш объекти холатини ўрганиш; -Танлов иштирокчисининг салохиятини белгиловчи хужжатлар; - Танлов иштирокчиси ишчи ходимлари тўғрисидаги маълумотлар; (Иштирокчилар танлов таклифларини махсус ахборот порталида эълон қилинган тартибда танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонда кўрсатилган манзил бўйича электрон тарзда махсус ахборот парталида жойлаштирадилар). |

| | |
|---|---|
| Иштирокчиларга нисбатан қўшимча талаблар: | Харид комиссияси томонидан ўтказиладиган малака танловида хужжатларни электрон жойлаштирилишида, барча хужжатлар тўлиқ ва сифатли кўринишда бўлиши шарт. Хужжатлар асл нусхалари рангли сканер холатида жойлаштирилади. Барча маълумотлар аниқ кўриниб туриши, шунингдек талабгор рахбар имзо ва мухрлари билан тасдиқланган бўлиши шарт. Ёлғон ва нотўғри киритилган маълумотлар жойлаштирган (электрон тизим орқали ўрганилиб) иштирокчилар танловдан четлаштирилади. Барча иштирокчилар танловда қатнашишда меъёрий хужжатлар талабларига риоя этишлари шарт. Хужжатларнинг сифат кўрсаткичлари ва тўғри расмийлаштирилишига алохида эътибор берилади |

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси Тех назоратчиси** — **И. Исломов**

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси хисобчиси** — **А. Хўжақулов**

**Харид қилиш ҳужжатларига**
**№4 ИЛОВА**

Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси томонидан, 2022 йилги жамоатчилик фикри асосида шаклланган, "Очиқ бюджет" жамғармаси хисобидан пудрат ишлари бўйича "Энг яхши таклифларни танлаш" электрон тизимида жойлаштириладиган эълон талабномалари

# МАЛАКА ҲУЖЖАТЛАРИНИНГ
# Р Ў Й Х А Т И

| | |
|---|---|
| 1 | Танлашда иштирок этиш учун харид комиссияси раиси номига ёзилган ариза (харид қилиш ҳужжатларига 5-илова) |
| 2 | Ташкилотнинг Давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисидаги гувоҳноманинг танлаш иштирокчисини муҳри билан тасдиқланган нусхаси |
| 3 | Закалат киритилганлигини тасдиқловчи тўлов топшириқномасининг нусхаси ёки банк кафолатининг асл нусхаси (харид қилиш ҳужжатларига мувофиқ талаб қилинганда). |
| 4 | Иштирокчининг қайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик ҳолатларида эмаслиги, буюртмачи билан суд ёки арбитраж муносабатларга киришмаганлиги, аввал тузилган шартномалар бўйича мажбуриятларнинг тегишли даражада бажармаслик ҳолатлари мавжуд эмаслигини тасдиқловчи кафолат хатлари (харид қилиш ҳужжатларига 6-илова) |
| 5 | Молиявий ҳисоботлар (ташқи аудитор ташкилотлар томонидан тасдиқланган ёки солиқ органлари томонидан қабул қилинганлиги тасдиқланган ҳолда) |
| 6 | Иштирокчиларнинг ишбилармонлик обрўсини (ишчи-ходимлари малакаси, иш тажрибаси, шу жумладан махсус фаолият бўйича тажрибаси) тасдиқловчи ҳужжатлар |
| 7 | Солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорлик мавжуд эмаслиги тўғрисида Давлат солик инспекциясининг маълумотномаси. Банк маълумотлари |
| 8 | Коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза (харид қилиш ҳужжатларига 14-илова) |

*ИЗОХ: Иштирокчилар ўз хоҳишига кўра фаолиятига доир қўшимча маълумотлар ва ҳужжатларни тақдим этиши мумкин.*

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси бошлиғи** Д. Даминов

**Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси хисобчиси** А. Хўжақулов

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси

бошлиғи ______________ Д. Даминов

"___" ______________ 2022 йил

Қарши тумани Ободонлаштириш бошқармаси томонидан, 2022 йилги жамоатчилик фикри асосида шаклланган, "Очиқ бюджет" жамғармаси хисобидан, Қарши тумани худудидаги "Бешкент марказий ўйингохи" ни мукаммал таъмирлаш ишлари бўйича "Энг яхши таклифларни танлаш" электрон тизимида жойлаштириладиган эълон талабномаларида,

## ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИНИ БАХОЛАШ МЕЗОНЛАРИ

| № | ТАЛАБ НОМИ | БАЛЛ | ТАВСИФИ |
|---|---|---|---|
| 1 | Танлов иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар | 8 | Низом ва гувохномадан, таъсисчи ва раҳбарнинг паспорт нусхалари. СТИР ракамлари. Статистик маълумотлар. Бошқа мавжуд хужжатлар |
| 2 | Танлов иштирокчиси томонидан, танловда иштирок этишини таъминлайдиган малака хужжатлари мавжудлиги | 21 | Танлашда иштирок этиши учун малака хужжатлари (1.Танлашда иштирок этиш учун харид комиссияси раиси номига ёзилган ариза; 2.Танлаш предмети бўйича таклиф; 3.Молиявий ҳисоботлар; 4.Иштирокчининг қайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик ҳолатларида эмаслиги; 5.Буюртмачи билан суд ёки арбитраж муносабатларга киришмаганлигини тасдиқловчи хужжатлар; 6.Кафолат хати; 7.Харид комиссияси раиси номига ёзилган Коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза;) |
| 3 | Танлов иштирокчисининг ишларни бажаришда фойдаланиладиган махсус техникалари мавжудлиги | 16 | Танлов иштирокчисининг махсус техникалари ва машина механизмалари мавжудлигини тасдиқловчи хужжатлар, техпаспортлар. Ижара асосида фойдаланиладиган техникалар бўйича тасдиқланган ижара шартномаси ва тех паспортлар бўлиши шарт. Бунда лойиха смета хужжатларида кўрсатилган таъмирлаш ишларида фойдаланиладиган техникалар ва бошқа механизмлар инобатга олинади |
| 4 | Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охирги 3 йиллик иш тажрибаси. Шунингдек жорий танлаш объекти холатини ўрганиш | 15 | 1. Охирги 3 йил давомида бажарилган ишлари буйича Ф-2 ва Ф-5 маълумотлари; 2.Аввалги таъмирлаш ишлари бўйича тегишли буюртмачилар томонидан бир неча ижобий тавсияномалар, ёки хулосалар; 3.Жорий танлаш объектини жойида ўрганилганлигини тасдиқловчи хужжатлар (Масалан: Махалла ва қишлоқлар, ёки бошқа мутасадди вакилларидан олинган маълумотнома ва бошқа хужжатлар) |
| 5 | Танлов иштирокчисининг молиявий холатини кўрсатувчи маълумотлар жамланмаси | 32 | 1.Пудрат ташкилотининг умумқурилиш ишлари бўйича электрон рейтинги тугрисида маълумот; 2.Тўловга қодирлиги ва Банк хисоб рақамидаги (танлов объекти бошланғич нархининг 20% миқдорида) маблағлар қолдиғи. 3.Солик, банк кредитлари ва бошка туловлардан карздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисидаги маълумотлар. 4. Объект таъмирлаш ишлари бўйича лот рақами кўрсатилган манзилли Банк кафолатининг мавжудлиги |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Танлов иштирокчисининг ишчи ходимлари тўғрисидаги маълумотлар | 8 | Ходимлар сони ва тажрибаси тугрисида маълумотлар |
| | | | |
| | **ЖАМИ** | **100** | |

Изох: Юқоридаги талабларда кўрсатилган (муддат билан боғлиқ ахамиятга эга бўлган) маълумотлар барчаси жорий холатда (танлаш эълони амалда бўлган даврлар холатида) тақдим этилиши лозим. Шунингдек маълумотлар асл нусхаси сканерланган холатида жойлаштирилиши шарт. Маълумотларнинг тўғрилиги электрон ва бошқа сўровлар орқали текшириб кўрилиши мумкин. Ёлғон ва ўзгартирилган маълумотлар киритган иштирокчилар аниқланганда ушбу иштирокчилар танловдан четлаштирилади.

Танлов якуни бўйича бахолаш натижаларидан норози бўлган иштирокчилар, Ўзбекистон Республикасининг 22.04.2022 йилги ЎРҚ-684-сон "Давлат харидлари тўғрисида" қонунининг 62-моддасига асосан, ўз шахсий кабинетлари орқали 2 иш кунида электрон тизим орқали аниқ далилларга асосланган холда ўз эътирозларини жойлаштиришлари мумкин.

Агар икки иш куни ичида танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмаса, давлат буюртмачиси ва харид комиссияси томонидан ғолиб деб топилган иштирокчи ўртасида шартнома тузилади. Шунингдек муҳокама учун белгиланган муддат тугаганидан кейин келиб тушган эътирозлар харид комиссияси томонидан кўриб чиқилмаслиги тўғрисида огохлантирамиз.

Танлаш харид комиссияси раиси — Худойназаров Илхом

Танлаш харид комиссияси аъзоси — Исломов Илхом

Танлаш харид комиссияси аъзоси — Хасанов Илхом

Танлаш харид комиссияси аъзоси — Шербоев Олим

Танлаш харид комиссияси аъзоси — Турсунов Матёқуб

Танлаш харид комиссияси масъул котиби — Файзиев Фурқат